

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**TUPROQ BIOGEOKIMYOSI – BIOSFERANING BARQAROR  
RIVOJLANISHI VA MUHOFAZASI**

**xalqaro ilmiy  
anjuman materiallari**

**TO'PLAMI**

---

**СБОРНИК**

**материалов международной  
научной конференции**

**БИОГЕОХИМИЯ ПОЧВ – УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ И  
ОХРАНА БИОСФЕРЫ**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>G.N.Ostonaqulova, S.X.Zakirova</b>	
Sariqo'rg'on tarixiy yodgorlik tuproq-gruntlarining sho'rlanganlik holati.....	117
<b>S.X.Zakirova, R.Z.Rajavaliyeva, G.I.Ikromaliyeva</b>	
Shifobaxsh malina o'simligini madaniy o'g'itlar bilan oziqlantirish.....	121
<b>M.X.Diyorova, S.N.Xoliqova</b>	
G'uzor massividagi qo'riq och tusli bo'z tuproqlarining agrokimyoiy xossalari.....	126
<b>M.T.Isag'aliyev, R.B.Matholiqov, N.Sh.Xakimjonova, D.K.Tolibova</b>	
Sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlar mexanik tarkibining o'zgarishi .....	132
<b>V.Y.Isaqov, S.B.Akbarov</b>	
Yozyovon tumanining tabiiy geografik shart-sharoitlari.....	136
<b>R.A.Iminchayev, M.A.Yuldasheva, J.G' Ma'rufjonov, G.M.Mamirjonova, G.G'.Yusupjonova</b>	
Janubiy Farg'ona och tusli bo'z tuproqlarning mineralogik tarkibi hamda mineral o'g'itlarning ahamiyati, sinflarga bo'linishi .....	140
<b>R.A.Iminchayev, T.A.Fayziyeva, M.X.Boboyeva, D.S.Ro'zaliyeva, R.M.Raximova</b>	
Janubiy Farg'ona och tusli bo'z tuproqlardagi Kovul o'simligining morfologiyasi, dorivorlik xususiyatlari va tuproqning agrokimyoiy xossalariiga ta'siri .....	144
<b>N.Sh.Bazarova, X.B.Mustafayev</b>	
Tuproqda kimyoiy birikmalarning to'planishi va insonlarda kelib chiqayotgan kasalliklar.....	147
<b>N.A.Ergasheva</b>	
Farg'ona va Qo'qon shaharlari tuproqlarining morfogenetik xususiyatlari.....	150
<b>N.I.Teshaboyev, O.A.Mirodilova, A.A.Bozorboyeva</b>	
Mikrobiologik o'g'itlarning tuproq unumdorligi va qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligiga ta'siri .....	157
<b>M.A.Yusupova</b>	
Sug'orish ta'sirida qumliklarning o'zgarishi .....	160
<b>O.K.Usmonov, M.A.O'lmasova</b>	
Almashlab ekish, tuproq unumdorligini oshirishni hamda sifatli chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni garovidir .....	164
<b>Q.A.Darvonov, A.A.Saminov</b>	
Suyuq azotli o'g'itlar bilan bargidan oziqlantirishni kuzgi bug'doyning rivojlanish fazalariga ta'siri .....	167
<b>S.A.Maxramxujayev, A.N.Meliqo'ziyev, O.D.Saidova</b>	
Yangi o'zlashtirilgan eroziyalangan och tusli bo'z tuproqlarda karbonatlar va gips differensiatsiyasi .....	170
<b>R.M.Abdurahmonov, M.I.Mahmudova, Q.M.Shermatova, G.H.O'tanova, G.T.Sotiboldiyeva, X.A.Abduxakimova</b>	
Kolmatajlangan tuproqlarda pista yetishtirishning afzalliklari .....	174
<b>R.A.Iminchayev, M.A.Sattorova, J.G 'Yigitaliyev, J.G'.Ma'rufjonov, M.X.Boboyeva</b>	
Janubiy Farg'onada shakllangan och tusli bo'z tuproqlarni agrokimyoiy xossalarni o'zgarishida azotli o'g'itlarning o'mi hamda ulami ishlab chiqarish .....	178
<b>S.M.Nazarova, Z.R.Avliyoqulov, Y.G'.Ismoilova</b>	
Buxoro vohasi sug'oriladigan tuproqlari tahlili.....	182
<b>A.T.Turdaliyev, G'.G'.Mamajonov, Y.H.Muhammadov</b>	
Sug'oriladigan tuproqlarda lantanoidlar va radioaktiv elementlar geokimyoisi .....	
<b>M.Z.Mamadaliyev</b>	
Kuzgi bug'doyning barg sathi maydoniga sholi poxoli, mahalliy hamda mineral o'g'itlarning ta'siri .....	192
<b>G'.T.Parpiyev, N.A.Qilichova</b>	
Konimex tabiiy-geografik rayoni tuproqlarining mikro va makroagregatligi .....	195

### 3-SHO'BA: TUPROQ-O'SIMLIK-HAYVONOT VA INSON ZANJIRIDA BIOGEOKIMYO

<b>V.Y.Isaqov, G'A.Akbarov</b>	
Farg'ona vodiysi qumli hududlarining umumiyl tafsifi.....	200
<b>M.A.Газиев, З.А.Мукимов</b>	
Роль органических веществ в стимулирование деятельность почвенных микроорганизмов.....	204



УО'К: 631.431.1, 631.452

**SUG'ORILADIGAN BOTQOQ-O'TLOQI TUPROQLAR MEXANIK TARKIBINING  
O'ZGARISHI**

**ИЗМЕНЕНИЕ МЕХАНИЧЕСКОГО СОСТАВА ОРОШАЕМЫХ БОЛОТНО-ЛУГОВЫХ  
ПОЧВ**

**CHANGES IN THE MECHANICAL COMPOSITION OF IRRIGATED SWAMPY MEADOW  
SOILS**

**Isag'aliyev Murodjon To'ychiboyevich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, b.f.d., professor.

**Matholiqov Ro'zali Baxtiyor o'g'li<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi.

**Xakimjonova Nazokatxon Shamsiddin qizi<sup>3</sup>**

<sup>3</sup>Farg'ona davlat universiteti, tadqiqotchi.

**Tolibova Dildora Komiljon qizi<sup>4</sup>**

<sup>4</sup>Farg'ona davlat universiteti, magistrant.

**Annotatsiya**

*Maqolada Farg'ona shahri "Jo'ydam" massivi hududida shakllangan sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlarning granulometrik tarkibining o'zgarishi bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan. Botqoq-o'tloqi tuproqlarning genetik qatlamlarida fizik loy (<0,01 mm) miqdoriga ko'ra og'ir qumoq va yengil loyli (46,6-62,5%) ekanligi isbotlangan. Botqoq-o'tloqi tuproqlarda chang zarrachalar miqdori ustunlik qilishi bilan xarakterlanadi.*

**Annotatsiya**

*В статье представлены результаты исследований по изменению гранулометрического состава орошаемых болотно-луговых почв, сформированных на территории массива «Жуйдам» города Ферганы. Доказано, что по содержанию физической глины (<0,01 мм) в генетических горизонтах болотно-луговых почв они относятся к тяжелосуглинистым и легким глинам (46,6-62,5%). Болотно-луговые почвы по механическому составу характеризуются преобладанием пылеватых частиц.*

**Abstract**

*The article presents the results of studies on changes in the granulometric composition of irrigated bog-meadow soils formed in the territory of the Juydam massif of the city of Fergana. It has been proven that according to the content of physical clay (<0.01 mm) in the genetic horizons of bog-meadow soils, they belong to heavy loamy and light clays (46.6-62.5%). Bog-meadow soils are characterized by the predominance of dusty particles in mechanical composition.*

**Kalit so'zlar:** Botqoq-o'tloqi tuproq, granulometrik tarkib, fizik qum, fizik loy, og'ir qumoq, yengil loy.

**Ключевые слова:** болотно-луговые почвы, гранулометрический состав, физический песок, физическая глина, тяжелый суглинок, легкая глина.

**Key words:** swampy meadow soils, granulometric composition, physical sand, physical clay, heavy loam, light clay.

**KIRISH**

Tuproq fizikasida tuproqqa ma'lum bir sharoitda tuproqning quyi va yuqori chegaralarida moddalar va energiyani toplash va ajratish, o'tkazish va transformatsiyalash (aylantirish) xususiyatlari ega bo'lgan geterogen ko'p fazali dispers tizim sifatida qaraladi [1].

Botqoq-o'tloqi tuproqlar – o'ta nam sharoitda hosil bo'ladigan tuproqlar bo'lib, bunday tuproqlarda namsevar o'simliklar yaxshi rivojlanadi. Botqoq tuproqlarda torf gorizonti, chirimagan

### 3-SHO'BA: TUPROQ-O'SIMLIK-HAYVONOT VA INSON ZANJIRIDA BIOGEOKIMYO

va chala chirigan holdagi organik qoldiqlar ko'pligi, o'simliklar rivojlanishi uchun oziqa moddalariga boyligi va kul elementlari kam bo'lishi bilan tavsifladnai [2]. Botqoq tuproqlar shimoliy yarim sharlarda, xususan, Rossiya, Kanada, AQSH, shuningdek, Braziliya, Argentina, Indoneziyada keng maydonlarda tarqalgan. O'rta Osiyoda yerlarni quritish melioratsiyasi tadbirlari va suvdan to'g'ri foydalanishni izga solish tufayli botqoq tuproqlar maydoni keskin kamayishi kuzatiladi [3]. O'zbekistonda botqoq, botqoq-o'tloqi tuproqlarning maydoni asosan cho'l mintaqasida keng tarqalgan bo'lib, daryo vohalari va Amudaryoning quyi oqimida uchraydi. O'bekiston Respublikasi tuproq qoplami atlasidagi ma'lumotlarga ko'ra botqoq-o'tloqi tuproqlar o'tloqi tuproqlar bilan birgalikda 3547,8 ming gektarni tashkil qiladi. Bu maydondag'i Farg'ona viloyatining ulushi 272,4 ming gektarni ishg'ol qilib, vodiylarida umumiyligini sug'oriladigan yerlaga nisbatan Farg'ona viloyatida botqoq-o'tloqi va o'tloqi-botqoq tuproq – 0,3%, Наманган viloyati cho'l mintaqasida o'tloqi va botqoq-o'tloqi tuproqlar – 20,0% va Andijon viloyatida botqoq-o'tloqi tuproqlar – 3,4% egallaydi [4, 5]. Lekin asosiy tuproq genetik guruhlarida botqoq-o'tloqi tuproqlar alohida keltirilmagan, qolaversa bu tuproqlarning granulometrik (mexanik) tarkibi ham yetarlicha tadqiq etilmagan.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqot obyekti sifatida Farg'ona viloyati Farg'ona shahri hududida joylashgan "Jo'ydam" fermer xo'jaligida shakllangan sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlar tanlangan.

Tadqiqot usullari asosini tuproqshunoslikda umumqabul qilingan dala, laboratoriya va kameral sharoitlardagi standart uslublar tashkil etadi. Tadqiqotning asosiy metodi tariqasida V.V.Dokuchayevning morfogenetik, kesma usuli qabul qilingan. Tuproqning granulometrik (mexanik) tarkibi Kachinskiy usulida asosidagi O'zDSt 817-97 davlat standarti [6] bo'yicha aniqlandi.

#### NATIJA VA MUHOKAMA

Tuproqning qattiq qismi tog' jinslari, minerallar va organik moddalardan iborat bo'lib, bu zarrachalar mexanik elementlar deb yuritiladi. Tuproq hosil bo'lislida har xil kattalikdagi mineral zarrachalarning foiz hisobidagi miqdoriga tuproqning mexanik tarkibi deyiladi. Mexanik elementlar diametri 1 mm dan katta bo'lsa tuproq skeleti, undan kichik bo'lsa melkozem deb nomlanadi. Melkozem ham ikkiga bo'linadi. Diametri 0,01 mm dan katta bo'lganlari fizik qum, undan kichiklari esa fizik loy hisoblanadi.

Tuproqlarning mexanik tarkibi tuproqning juda ko'plab xossalariiga ta'sir ko'rsatadi, jumladan, tuproqlarning suv xossalari: suvni tutib turishi, suv o'tkazuvchanligi, suvni ko'tarishi; issiqlik xossalariiga, harorat tartibotiga; oziqa moddalar bilan ta'minlanganlik darajasiga; mikrobiologik faolligiga; tuproqqa ishlov berishda solishtirma qarshiligidagi va boshqa ko'plab muhum xossalariiga ekanligini ko'rsatadi [7].

Tuproqning granulometrik (mexanik) tarkibi – tuproqdag'i har xil o'lchamdag'i zarrachalarning nisbiy foiz miqdori asosida o'rganiladi. Bu odatda xona sharoitida quritilgan tuproqning og'irligi bo'yicha foizlarda ifodalanadi. Tuproqning granulometrik tarkibi tuproq hosil bo'lislardan jarayonini o'zida aks ettiradi va boshqa jarayonlarning ta'siri ostida tuproq hosil qiluvchi ona jinsdag'i o'zgarishlarni kuzatish va baholash imkonini beradi. Mexanik tarkib tuproqlarning suv tartibotiga va ularning yuvilishi darajasiga ta'sir qilib, tuproqlarning harorat tartibotida namoyon bo'ladi.

Mexanik elementlarning xususiyatlari ularning o'lchamlariga bevosita bog'liq. Xuddi shunday kattalikdagi elementlar zarrachalar fraktsiyalarga birlashtiriladi. Zarrachalarni kasr kattaligi bo'yicha guruhlash mexanik elementlarning tasnifi deb ataladi [8] (Vilyams - Kachinskiy bo'yicha) (1-jadval).

1-jadval

**Tuproqlar mexanik elementlari tasnifi (Vilyams-Kachinskiy bo'yicha)**

Zarracha o'lchami, mm	Mexanik element nomi	Fraksiya guruhi	
>3	Toshlar (shag'al, sayqallangan tosh)		Tupr oq skeleti
3-1	Mayda tosh (graviy, xryash)		

## 2-SHOBA: TUPROQ UNUMDORLIGI – LANDSHAFTNING BARQAROR RIVOJLANISH OMILI

1-0,5	Yirik qum	Fizik qum	
0,5-0,25	O'rtacha qum		
0,25-0,10	Mayda qum		
0,10-0,05	Nozik qum		
0,05-0,01	Yirik chang		
0,01-0,005	O'rta chang	Fizik loy	
0,005-0,001	Mayda chang		
0,001-0,0001	II		
<0,0001	Kolloid		

Tuproq kesmaları "Jo'ydam" fermer xo'jaligiga tegishli bo'lgan 208, 209, 210 va 354-koturlardan 4 ta asosiy chuqur, 4 tadan yarim chuqur va 4 tadan chuqurcha qazib, tuproq namunalari olindi.

Birinchi 3-2023-1-kesma morfologik belgilari ko'ra farqlanuvchi 4 ta genetik qatlamlarga ajratildi, birinchi A<sub>h</sub> 0-32 sm li haydov qatlam mexanik tarkibiga, ya'nı 0,01 mm dan kichik bo'lgan fizik loy zarrachalarining miqdori 59,5% ni, mexanik tarkibiga ko'ra og'ir qumoqqa to'g'ri keladi. A<sub>h</sub>-o 32-50 sm li haydov osti qatlama fizik loy 61,2%, granulometrik tarkibiga ko'ra yengil loyga to'g'ri keladi. Keyingi B<sub>1</sub> 50-60 sm li qatlama fizik loy miqdori 57,0% va unga ko'ra bu qatlam ham og'ir qumoqli, va nihoyat B<sub>2C</sub> 60-68 sm li qatlama fizik loy 50,7% ga tengligi kuzatildi, bu miqdorga ko'ra botqoq-o'tloqi tuproqlarni hosil qiluvchi ona jinslar ham og'ir qumoqligi o'z isbotini topdi.

Ikkinchisi 3-2023-2-kesma morfologik belgilari ko'ra 7 ta qatlama ajratilgan. A<sub>h</sub> 0-31 sm li qatlama 0,01 mm dan kichik bo'lgan zarrachalarning miqdori 54,0% ni, mexanik tarkibiga ko'ra og'ir qumoqliga to'g'ri keladi. A<sub>h</sub>-o 31-43 sm li haydov osti qatlam mexanik tarkibi tahviliga ko'ra <0,001 zarrachalar yig'indisi 56,8%, ya'nı mexanik tarkibiga ko'ra og'ir qumoq. B<sub>1</sub> 43-66 smli qatlam mexanik tarkibi o'rganilganida fizik loy 61,3% ni, mexanik tarkibiga ko'ra yengil loyli. B<sub>2</sub> 66-87 sm li qatlam fizik loyqa 48,8% ni, granulometrik tarkibiga ko'ra og'ir qumoq. Beshinchi B<sub>3</sub> 87-96 sm li qatlam mexanik tarkibi o'rganilganda fizik loy 47,5% ni va og'ir qumoqqa to'g'ri keladi. B<sub>4C</sub> 96-120 sm li qatlamdagagi fizik loyqa o'rganilganda uning miqdori 58,0% ni, mexanik tarkibiga ko'ra og'ir qumoqligi aniqlandi. Yettinchi C qatlam, 120-134 sm li qatlam mexanik tarkibiga ko'ra og'ir qumoq bo'lib, fizik loy miqdori 55,2% ni tashkil etadi. Qolgan olingan natijalar ham 2-jadvalda keltirildi.

## 2-jadval

## Botqoq-o'tloqi tuproqlar granulometrik tarkibining o'zgarishi

Kesma raqami	Chuqurligi, sm	Zarrachalarning o'lchami, mm; miqdori, %							
		Qum			Chang			II	Fizik loy
		>0,25	0,25-0,10	0,10-0,05	0,05-0,01	0,01-0,005	0,005-0,001	<0,001	<0,01
3-2023-1	0-32	5,2	7,6	2,8	25,0	21,5	21,1	16,8	59,4
	32-50	3,8	9,7	5,6	19,7	27,2	17,9	16,1	61,2
	50-60	8,4	7,2	2,7	24,6	22,6	14,0	20,5	57,1
	60-68	3,0	14,5	6,7	25,2	16,7	15,6	18,3	50,6
3-2023-2	0-31	11,1	6,6	5,5	22,8	15,7	19,3	19,0	54,0
	31-43	8,6	7,2	1,9	25,5	20,3	17,1	19,4	56,8
	43-66	7,8	8,2	4,8	17,9	15,3	31,7	14,3	61,3
	66-87	10,0	3,6	7,1	30,6	17,0	18,2	13,5	48,7
	87-96	10,2	2,6	2,8	36,9	9,5	20,1	17,9	47,5
	96-120	8,8	7,2	5,9	20,2	13,8	22,7	21,4	57,9
	120-134	9,9	8,8	6,1	20,1	8,1	24,8	22,2	55,1
3-2023-3	0-24	8,6	9,0	5,2	18,7	16,8	24,2	17,5	58,5
	24-41	6,8	10,5	7,0	26,2	13,3	19,2	17,0	49,5
	41-62	11,6	7,9	2,0	24,3	11,5	25,3	17,4	54,2
	62-78	5,0	10,0	5,3	25,6	12,0	20,3	21,8	54,1

## 3-SHO'BA: TUPROQ-O'SIMLIK-HAYVONOT VA INSON ZANJIRIDA BIOGEOKIMYO

	78-107	7,2	5,6	6,9	29,3	13,1	25,2	12,7	51,0
	107-125	7,5	5,9	1,1	38,9	12,1	22,1	12,4	46,6
	125-150	7,4	4,4	1,9	23,8	17,4	27,6	17,5	62,5
4-2024-4	0-30	3,6	3,4	2,8	33,2	15,9	23,5	17,6	57,0
	30-51	6,5	6,7	6,1	26,3	14,5	24,2	15,7	54,4
5-2024-5	0-31	4,2	6,1	2,7	26,1	11,6	33,8	15,5	60,9
	29-49	3,8	8,4	5,0	24,4	11,6	32,7	14,1	58,4

Jadval ma'lumotlаридан ko'rинib turibdiki, keyingi oлинган tuproq kesmalarining genetik qatlamlarida ham fizik loy miqdoriga ko'ra og'ir qumoq va yengil soz (loy) oralig'ida saqlanib turadi.

**XULOSA**

Sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlarning unumdorligini tavsiflashda, uning mexanik tarkibi asosiy va zaruriy ko'rsatkichlардан бири sanalari. Og'ir mexanik tarkibli tuproqlarda namlik nisbatan ko'p bo'lib, eng muhimi ularni o'zida uzoq vaqt saqlab turish qobiliyatiga ega ekanligi bilan tavsiflanadi. Og'ir mexanik tarkibli tuproqlar suv-havo o'tkazuvchanligi yomonligi bilan, yengil tuproqlar esa oziqa moddalar va suv zahirasining kamligi, infiltratsiya qobiliyati va aeratsiya jarayonining yuqoriligi bilan farqlanadi. Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rindaniki, sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlarda fizik loy ( $<0,01$ ) miqdori 46,6-62,5% miqdorida tebranib, mexanik tarkibiga ko'ra og'ir qumoqli tuproqlar ekanligi bilan xarakterlanadi.

Agrotexnik tadbirlarni (yerga ishlov berish, sug'orish, organik va mineral o'g'itlarni qo'llash, qishloq xo'jaligi ekinlarni joylashtirish) o'tkazishad tuproqning mexanik tarkibini hisobga olgan holda amalga oshirish tavsiya etiladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Козлова А.А. Физика почв. Ч. 1. Иркутск. Изд-во ИГУ, 2012. 217 с.
2. Каршибоев Х.Ш., Бобомуродов Ш.М., Баходиров З.А. Механический состав орошаемых болотно-луговых и луговых почв Бухарского оазиса // Научное обозрение. Биологические науки. 2024. №1. – С. 36-40; URL: <https://science-biology.ru/ru/article/view?id=1351>.
3. Moreno F., Cabrera F., Fernández-Boy E., Girón I.F., Fernández J.E., Bellido B. Irrigation with saline water in the reclaimed marsh soils of south-west Spain: impact on soil properties and cotton and sugar beet crops // Agricultural Water Management. June 2001, 48/2. P. 133-150.
4. Кузиев Р.К., Сектименко В.Е., Исманов А.Ж. Атлас почвенного покрова Республики Узбекистан. Т., 2010. 44 с.,
5. Исманов А.Ж., Абдурахманов Н.Ю., Каримов Х.Н., Каландаров Н.Н., Турсунов Ш.Т. Почвы Центральной Ферганы и их изменение при орошении // Научное обозрение. Биологические науки. 2018. №3. – С. 12-17; <https://science-biology.ru/ru/article/view?id=1102>.
6. O'zDSt 817-97. Грунты. Методы лабораторного определения гранулометрического и микроагрегатного состава // Тошкент, 1998. 10 с.
7. Isag'aliyev M., Abdusakimova X., Mirzayeva S. Tuproq umumiyligi fizik xossalari – uning unumdorligi indikativ ko'rsatkichi //foda-ilmiy innovatsion jurnali, Toshkent, №1, 2022. 40-41 b.
8. <https://studfile.net/preview/1792052/page:3/>